



## HAYVON NOMLARINING LUG‘ATLARDA BERILISHI. “AT TUHFATUZ ZAKIYATU FIL-LUG‘ATIT TURKIYA VA DEVONI LUG‘ATIT TURK MISOLIDA”

Xidirova Iroda Xolmurzayevna - Ilmiy rahbar  
Shermo'minova Mahliyo Shavkatovna  
TerDu, o'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qadimgi turkiy til lug‘atlaridan o‘rin egallagan hayvon nomlarining hozirgi kundagi muqobili, ularning kelib chiqish etimologiyasi hamda keltirilgan so‘zliklarning leksik-semantik va fonetik-fonologik tahlil amalga oshirilgan, umumiy xulosalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** hayvon nomlari, leksik-semantik, fonetik-fonologik, statistik tahlil metodi, lingvistik tahlil, leksikografik-lingvistik, etimologiya.

Hayvon nomlari bir necha asrdirki leksikografik-lingvistik ko‘lamda tadqiq etib kelinadi. Bu nomlar har bir lug‘atda o‘ziga xos turlicha nomlarda ifodalangan. Biz ana shu farqlarni ochish maqsadida o‘zbek leksikografiyasining ustuni bo‘lgan, mashhur lug‘atshunos hamda diaelktolog olim qalamiga mansub XI asrga tegishli “Devoni lug‘ati turk” (keyingi o‘rinlarda MK) va xuddi shu asrda yozilgan, ammo muallifi noma’lum bo‘lgan “At-tuhfatuz zakiyati fil lug‘atit turkiya” (keyingi o‘rinlarda “At-tuhfat”) lug‘atlaridan so‘zliklar qidirdik Ushbu kichik tadqiqot ishimizda biz statistik, leksik-semantik, etimologik, fonetik-fonologik, qiyoslash-chog‘ishtirish metodlaridan foydalandik.

Statistik tahlil metodimizga ko‘ra “Devon”da 62 dona, “At-tuhfat”da esa 50 dona hayvon nomlari ifodalangan. Shu hayvonlarning jami 80 tasi uy hayvoni, 22 tasi yovvoyi hayvon ekan. Lingvistik tahlil metodlarimizga asoslanib, hayvon nomlarini leksik-semantik tahlil qildik.

Ushbu lug‘atlarni o‘rganar ekanmiz, lug‘atdagi bir so‘zlikning nomlanishi hamda uning ma’nosini ikkinchi lug‘atda umuman boshqacha nomlanganiga guvoh bo‘ldik. Ularning ba’zilari keng doirada tahlil qilindi. “Devoni lug‘otit turk” da **quyon** ma’nosida – **tawīšğan** (202b) so‘zi, “At-tuhfatda esa **тавшан**, **қіјан** (15b), **қујун** (80b) so‘zlari ishlatilgan. **Qo‘chqar** so‘zi – “MK” da **qoč** (133b), **qočjar** (453b) so‘zliklari ishlatilgan bo‘lsa, “At-tuhfat”da – **қочқаз** (229b) shaklida ishlatilgan. Shuningdek, bir ma’noning bitta lug‘atda bir nechta so‘zliklar orqali talqin qilinganligini ko‘rdik. “MK”da **sigir** ma’nosida **ud** “chigilcha” (32b), **iňak** (57b), **sığır** (146b) so‘zliklari keltirilgan. “At-tuhfat”da **echki** ma’nosida – **tākā** (31b), ёшки (178b) so‘zliklari keltirilgan bo‘lsa, 2 yoshli echki ma’nosida esa – **қујун** (38b) ёчки (178b), **ігши** (211b) so‘zliklari ishlatilgan. Shu jumladan, **bo‘taloq** so‘zi “MK”da **botuq** (399b) shaklida, “At-tuhfat”da – **бота** (46b) ko‘rinishida berilgan.

Lug‘atlardagi so‘zliklarni tahlil qilar ekanmiz, hayvon nomlarining kelib chiqish etimologiyasiga ham diqqatimizni qaratdik.

“At-tuhfat”dagi **tývä** (41b) so‘zining etimologiyasiga to‘xtalib o‘tsak, o‘rkachli yirik sutevizuvchi hayvon. “MK”ning 3 tomligida **тәwä** (III,153), **gewä** (III,245), **тәwi** (III,153), **тәwäj** (III,245) shakllarida keltirilgan. Hozirgi o‘zbek tilida bu



so‘zning boshlanishidagi undosh “t” tarzida, birinchi bo‘g‘indagi unli “u” tarzida, ikkinchi bo‘g‘in boshidagi undosh “y” tarzida talaffuz qilinadigan shakli yetib kelgan. (Etimologik l. 1-jild. 356). “MK”ning 1 tomligida esa **iqän** (61b) hamda **tetir** (146b), **bug‘ra** (168b) so‘zi **erkak tuya** ma’nosida kelgan. “At-tuhfat”da – **тўші тёва** (260b) so‘zi **urg ‘ochi tuya** ma’nosida, **шўршак** (47b) qari tuya ma’nosida keltirilgan.

“MK”ning 1 tomligiga kiritilgan **sig‘ir** (146b) so‘zi etimologiyasi – urg‘ochi qoramol. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu ot asli **сығыр** tarzida talaffuz qilingan “MK” 3 tomlik (I.344b). O‘zbek tilida “ы” unlisining qattiqligi yo‘qolib, “ғ” undoshi “г” undoshiga almashgan: **сығыр>сигир**. (Etimologik l. 1-jild. 284b).

**Tulki** – itlar turkumiga mansub, tumshug‘i uzun, dumi mayin, uzun junli yirtqich sutemizuvchi hayvon. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatuvchi bu ot to‘rt xil nom bilan atalgan: **tilki**, **tilku**, **tulki**, **tulku**. O‘zbek tilida **tulki** shaklidagi “у” unlisining yumshoqlik belgisi yo‘qolib ketgan. (Etimologik l. 1-jild.358b). Xususan, “MK”ning 1 tomligida **tilkü** (171b) shaklida uchraydi.

**Arslon** – mushuksimonlar oilasiga mansub, bahaybat, yirtqich sutemizuvchi hayvon. Bu so‘z qadimgi turkiy tilda “ars” tovushga taqlid so‘zidan –la qo‘srimchasi bilan yasalgan fe’lga –n qo‘srimchasini qo‘shib yasalgan. O‘zbek tilida birinchi bo‘g‘inidagi “a” unlisi “ä” unlisiga, ikkinchi bo‘g‘inidagi “a” unlisi esa “ä” unlisiga almashgan. (**ars+la=arsla+n=arslan>ärslän**). (Etimologik l. 1-jild. 32b). “MK”ning 1 tomligida **arslan** (465b) shaklida, “At-tuhfat”da ham **арслан** (15b) shaklida uchraydi.

**It** – qo‘riqlash uchun, ov qilish uchun saqlanadigan uy hayvoni. Bu ot qadimgi turkiy tilda **iyt** shaklida aytilgan (Ba’zi o‘zbek shevalarida hozir ham shu nom bilan ataldi), o‘sha davrdayoq “y” undoshi talaffuz qilinmay qo‘ygan, shuning hisobiga “I” unisi cho‘ziq aytilgan, keyinroq bu cho‘ziqlik ham yo‘qolgan. (Etimologik l. 1-jild. 126b). “MK”ning bir tomligida bu so‘z **it** (28b) tarzida, “At-tuhfat”da **тази** (252b) shaklida qo‘llanilgan.

**Ot** – yirik ish-ulov hayvoni. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan va **at** tarzida talaffuz qilingan. Mahmud Koshg‘ariy bu so‘zni (qattiq talaffuz qilinadigan alif bilan) deb alohida ta’kidlab o‘tadi. O‘zbek tilida “a” unlisi “ä” (o) unlisiga almashgan. **at>ä**. (Etimologik l. 1-jild. 258b). “MK”ning 1 tomligida **at** (28b) shaklida keltirilgan bo‘lsa, “At-tuhfatda” **յўлқи** (203b) so‘zligi **yilqi** ma’nosida keltirilgan.

**Toycha** – otning ikki yashardan kichik bolasi. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu ot asli **tay** tarzida talaffuz qilingan, o‘zbek tilida “a” unlisi “ä” (o) unlisiga almashgan. **tay>täy**. (Etimologik l. 1-jild. 344b). “At-tuhfat”da ushbu ma’noni ifodalovchi so‘z **taj** (251b) hamda **япаглї** (46b) shaklida uchraydi. “MK”da esa **sip** (132b) so‘zi ikki yoshli toy ma’nosida, **qulun** (162b) so‘zi ayg‘ir, toy ma’nosida, **tosun** (161b) so‘zi toychoq hali minilmagan toy ma’nosida, (377b) so‘zi toycha ma’nosida keltirilgan.

Yuqorida ko‘rib chiqqan lug‘atlarimizda ayrim hayvon nomlari bir nechta tovushlar bilan fonetik jihatdan farq qilib kelganini ko‘rishimiz mumkin. Biz tadqiqotimiz davomida ularni jadval asosida tasniflab, fonetik-fonologik jihatdan tahlil qilib chiqdik.



Devoni lug'ati-t-turk (1 томлик)	At-tuhfatuz zakiyatu fil lug'atit turkiya	Hozirgi kundagi nomlanishi
1. Tilkü (171b)	Тулки (38b)	Tulki
2. Ađg'ir (51b)	Ajřip (165b)	Ayg'ir
3. Ečkü (65b)	Ёшки (178b)	Echki
4. Toňuz (446b)	Данғуз (193b)	To'ng'iz
5. Öküz (37b)	Окуз (237b)	Ho'kiz
6. Tawîşg'an (202b)	Тавшан (15b)	Quyon
7. Qulan (166b)	Булан (190b)	Yovvoyi eshak
8. Četük (156b)	Жэтук (208b)	Mushuk

Shuningdek, bitta lug'atda ikki so'zlikning bir xil izohga ega ekanligini, ammo izohlanayotgan so'zliklar ayrim tovushlar orqali farq qilishini ham ko'rib o'tdik.

Hozirgi kundagi nomi	Devoni lug'ati-t-turk (1 томлик)
1. Ayiq	ađig' (39b) = ayig' (47b)
2. Eshak	eškäk (57b) = ešyäk (58b)
Hozirgi kundagi nomi	At-tuhfat
3. Quyon	кijan (15b) = күжун (80b)

Shu jumladan, lug'atlardagi so'zliklarda darajalanish hodisasini ham ko'rishimiz mumkin. Ayrim hayvon nomlari yoshiga ko'ra darajalanib ko'rsatilgan. "MK" da **tišäk** (156b) – ikki yoshli qo'y, **irk** (31b) – to'rt yoshga qadam qo'ygan qo'y, **qoy** (371b) – qo'y ma'nolarini ifodalab kelgan bo'lsa, **toqli** (172b) – olti oylik qo'chqor, **qočnar** (453b) va **qoč** (133b) so'zлари qo'chqor ma'nosida keltirib o'tilgan. Yana ushbu lug'atda **buzag'u** (178) – buzoq, **tadun** (382b) va **turbü** (166b) – bir yoshli buzoq, **tügä** (403b) – ikki yoshli buzoq ma'nolarida keltirilgani ko'rsatib o'tilgan.

Xulosa o'mnida shuni aytib o'tish mumkinki, davrlar o'tishi bilan insonlar o'z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, hayvon nomlarini leksik, fonetik hamda grammatic jihatdan qulay tarzda talaffuz qilib kelishgan. Tadqiqot ishimizdagи lug'atlardan ko'rinib turubdiki, insoniyat hayvon nomlarnini faqatgina bir nom ostida





saqlashmagan, balki tur, jins hamda yosh nuqtai nazaridan bo‘lib tasniflab kelishgan. Bu esa turkiy xalqlarning qanchalik lug‘at boyligi sermahsul ekanligining yorqin timsolidir. Ushbu lug‘atlar avloddan avlodga o‘tish jarayonida yanada kengayib, yangilanib boradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mahmud Koshg ‘ariy. Turkiy so‘zlar devoni (Devonu lug ‘atit turk). – Toshkent: Fanlar Akademiyasi, 1963.
2. Attuhfatuz zakiyatuz fillug‘atit turkiya [Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa]. – Toshkent: Fan, 1968.
3. Shavkat Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati – Toshkent: Universitet, 2000.
4. Xidirova. I., & Dobilova. M (2023). IMLO MUAMMOLARI VA YECHIM Modern Science and Research. 2(3), 138-141.

